



**O'QUVCHILARNI O'YINLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA
TARBIYALASHNING MAZMUNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11063556>

Rasulova Dilrabo Raxmatullayevna

JDPU, Pedagogika ta'limi nazariyasi katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

O'yin ijodiyliги bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakter «ijod maydoni»ga ega bo'ladi. Tadqiqotchilar o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydi. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, ta'lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llaniladi.

Kalit so'zlar

Pedagogik faoliyat, o'yin texnologiyalari, interfaol metodlar, kommunikativlik, ijtimoiylashuv.

АННОТАЦИЯ

Игра отличается своей креативностью. У него будет богатый, активный характер «творческого пространства». Исследователи рассматривают игру как деятельность, процесс и метод обучения. Игры будут преследовать разные цели. Их используют в дидактических, образовательных, воспитательных и социализирующих целях.

Ключевые слова

Педагогическая деятельность, игровые технологии, интерактивные методы, коммуникативность, социализация.

ANNOTATION

The game is distinguished by its creativity. He will have a rich, active character "creative space". Researchers look at the game as an activity, process and teaching method. The games will be aimed at different goals. They are used for didactic, educational, educational and socialization purposes.

Key words

Pedagogical activity, game technologies, interactive methods, communicativeness, socialization.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarimizning markazida o'quvchini ta'lim jarayonining subyekti - faol ishtirokchiga aylantirish yotadi. Bunga albatta interfaol metodlar hamda o'yin texnologiyalarini qo'llash orqali erishiladi. Interfaol atamasi inglizcha "interast" o'zaro ta'sirlanish (yoki



interraction-o'zaro ta'sir) so'zidan olingan bo'lib, biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro muomalada, o'zaro bahs, munozara, debat usulida, fikrlashish asnosida, hamjihatlik bilan hal etish ma'nosini anglatadi. Boshqaruv faoliyatiga nisbatan olganda, interfaol usul jamoaning o'z ichki potensialidan, ishlab chiqarish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'z-o'zini boshqarish texnologiyalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash va joriy qilish tushuniladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining texnologik tayyorgarligi boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiya elementlaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Umumiy o'rta ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar quyidagilar:

- Muammoli o'qitish texnologiyasi
- O'yinli texnologiyalar
- Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan texnologiyalar
- Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari
- Modulli texnologiyalar
- O'qitishning tabaqalashtirilgan va induvidual texnologiyasi
- O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi
- Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi va boshqalar

Bu texnologiyalar orasida o'yin usuli alohida o'rin tutadi. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin- olimlar tadqiqotlariga ko'ra, mehnat va o'qish bilan birgalikdagi faoliyatining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yinli faoliyat muayyan vazifalarini bajarishiga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- kommunikativlik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakter «ijod maydoni»ga ega bo'ladi. Tadqiqotchilar o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydi. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, ta'lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llaniladi.

O'yinning didaktik maqsadi – bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka, ko'nikmalarni qo'llash, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.



O'yinning tarbiyaviy maqsadi - mustaqillik, irodani tarbiyalash, ma'naviy estetik va dunyoqarashini shakllantirishda hamkorlikni, jamoaga kirib keta olishni, birdamlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi maqsadi - diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o'xshashni topish, xayol, ijodiy qobiliyat, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv maqsadi - jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinishi, ehtirolarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish va muloqatga o'rgatishni nazarda tutadi. Pedagogik o'yinlar asosida o'quvchilarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullarni vujudga keltirish yotadi.

Biz quyida ana shunday interfaol usullarini o'zida mujassamlashtirilgan o'yinlarni qanday qilib rejalashtirish mumkinligi haqida tavsiyalar berib o'tamiz.

Ma'lumki, o'zbek xalq maqollarida antonimlar ko'proq uchraydi. Shu bois bu shartda o'quvchilar navbatma-navbat antonimlar ishtirok etgan maqollaridan aytadi. Masalan, «yaxshiga yondash, yomondan qoch», «do'st achitib gapirar, dushman kuldirib gapirar», «kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda» va h.k.

«Zinapoya» usuli. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. So'ng xattaxtaga ushbu shaklda «zinapoya» chiziladi. Ma'lumki, antonimlar o'z juftliklariga ega. Shundan kelib chiqib, ushbu juftlikning bittasi «zinapoya» ga yozib qo'yiladi, ikkinchisini esa guruhlardagi o'quvchilarning o'zlari topadi, ular zinalardan bosh zinaga chiqib borishadi. Bunda o'quvchilarda tezkorlik talab etiladi. Chunki qaysi guruh o'quvchilari birinchi bo'lib bosh zinaga chiqsa, ular g'olib bo'ladi. Sinfdan nechta o'quvchi bo'lsa, zinalar soni shuncha bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyani - o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarini tanlash va ishlab chiqish mahorati desa ham bo'ladi. Darhaqiqat, o'yin texnologiyalari tarbiya jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarga bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ularda amaliyotda erkin foydalanish, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

O'quvchilarni aqliy tarbiyalash jarayonida o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ - muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;



- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;

- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;

- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;

- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;

- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'quvchilarning aqliy tarbiyalanganlik va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O'qituvchi-pedagog avval o'quvchilarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o'quvchlar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turg'unov S.T. va boshqalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: "Sano-Standart", 2012 - 100 b.
2. Turg'unov S.T., Axmadjonova N.M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyati algoritmi. // Xalq ta'limi. -Toshkent, 2012 - №1. - B. 133-134
3. Jumaboev M "O'zbek bolalar adabiyoti", Toshkent "O'zbekiston" 2012 y, 21b.
4. Maxmudov Y.F, Xudoyqulov X.J. "Milliy g'urur-ma'naviy komillik mezonlari". T, Dizayn-Press 2011.327b.
5. Rahimova R. "Tarbiyachiga 1001 maslahat" ., Toshkent.,2007 yil.
6. Sodiqova Sh. "Maktabgacha pedagogika" Toshkentyuyu., 2013 yil
7. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova .maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent, O'zPFITI nashriyoti - 2015 yil



8. Mavlonova R., B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.- T.: "Tib-kitob", 2010.
9. Sodiqova Sh. A Maktabgacha pedagogika T. : Tafakkur bo'stoni. 2019